

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.M.Qandov</b>	Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
<b>U.J.Mansurov</b>	Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
<b>M.M.Alimova</b>	1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi .....	312
<b>J.Museyibzada</b>	Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
<b>A.A.Azizov</b>	Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) .....	324
<b>A.T.Ahmedov</b>	Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari .....	328
<b>D.A.Urinbayeva</b>	Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
<b>T.Ch.Xoliyarov</b>	Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi .....	340
<b>X.X.Mamajonov</b>	Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar .....	347
<b>I.S.Yusupov</b>	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi .....	351
<b>F.K.Jumanazarova</b>	Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
<b>U.X.Gulmatov</b>	O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni .....	359
ADABIYOTSHUNOSLIK		
<b>U.B.Matmurotova</b>	Badiiy tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida.....	364
<b>Sh.A.Safarova</b>	"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish .....	369
<b>D.I.Nazarova</b>	Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar .....	374
TILSHUNOSLIK		
<b>A.B.Uralov</b>	Til sathlarida nomutanosiblik .....	381
<b>A.Sh.Muxamadiyev</b>	Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
<b>Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova</b>	Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida .....	393
<b>U.Sh.Turaeva</b>	Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
<b>Y.T.Rakhmonkulova</b>	A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages .....	401
<b>O.F.Turdaliyev</b>	"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli .....	405
<b>M.O.Usarova</b>	Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari .....	413
<b>Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова</b>	Смысловые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер .....	417
<b>B.Q.Nomonov</b>	Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



UO'K: 811.111:811.512.133:81-13:398.9

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SALOMATLIK VA KASALLIKKA OID MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI****СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ О ЗДОРОВЬЕ И БОЛЕЗНЯХ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****SEMANTIC FEATURES OF PROVERBS ABOUT HEALTH AND DISEASES IN ENGLISH AND UZBEK****Usarova Madina Ortiqboy qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Qiyosiy tilshunoslik va tarjima nazariyasi kafedrasida tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik o'ziga xosliklari o'rganiladi. Maqolada turli metodologiyalardan foydalangan holda ushbu maqollar salomatlik va kasallikka nisbatan madaniy munosabatni qanday aks ettirishi va shakllantirishi har tomonlama ko'rib chiqiladi. Batafsil qiyoslash orqali maqolada bu ikki til maqollarida uchraydigan umuminsoniy mavzular ham, noyob madaniy iboralar ham yoritilgan. U maqollarning til tuzilmalari, madaniy kontekstlari va tematik elementlarini o'rganadi, ularda mujassamlashgan hikmat va jamiyat qadriyatlari haqidagi tushunchalarni ochib beradi. Ushbu tahlil nafaqat maqollarni madaniy ifoda shakli sifatida tushunishni kuchaytiradi, balki til, salomatlik va madaniyatning o'zaro bog'liqligi haqida qimmatli nuqtai nazarni ham taqdim etadi.

**Аннотация**

В данной статье исследуются семантические особенности пословиц, связанных со здоровьем и болезнью, в английской и узбекской культурах. Используя различные методологии, в статье дается всестороннее исследование того, как эти пословицы отражают и формируют культурное отношение к благополучию и болезни. Путем детальных сравнений в статье освещаются как универсальные темы, так и уникальные культурные выражения, встречающиеся в пословицах этих двух языков. Он углубляется в лингвистические структуры, культурный контекст и тематические элементы пословиц, раскрывая понимание коллективной мудрости и социальных ценностей, заложенных в них. Этот анализ не только улучшает понимание пословиц как формы культурного самовыражения, но также предлагает ценный взгляд на взаимосвязь языка, здоровья и культуры.

**Abstract**

This article explores the semantic peculiarities of proverbs related to health and sickness in English and Uzbek cultures. By employing different methodologies the article provides a comprehensive examination of how these proverbs reflect and shape cultural attitudes toward well-being and illness. Through detailed comparisons, the article highlights both the universal themes and the unique cultural expressions found in the proverbs of these two languages. It delves into the linguistic structures, cultural contexts, and thematic elements of proverbs, uncovering insights into the collective wisdom and societal values embedded within them. This analysis not only enhances the understanding of proverbs as a form of cultural expression but also offers a valuable perspective on the interconnectedness of language, health, and culture.

**Kalit so'zlar:** maqol, semantika, salomatlik, kasallik, davo, madaniyat, hikmat, til, sotsialingvistika, muloqot.**Ключевые слова:** пословицы, семантика, здоровье, болезнь, лекарство, культура, мудрость, язык, социолингвистика, общение.**Key words:** proverbs, semantics, health, sickness, remedy, culture, wisdom, language, sociolinguistics, communication**KIRISH**

Maqollar asrlar davomida insonlar muloqotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakli, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantig'ini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan

bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir[3, 3]. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan maqollar xalqlarning madaniy qadriyati, axloqiy tamoyillari va hayotiy tajribalarini o'z ichiga oladi. Xalqning donoligi va ruhiyati uning maqol va matallarida namoyon bo'lib, o'z xalqi yoki boshqa xalqlarning maqol va matallarini o'zlashtirib olish nafaqat tilni yaxshi bilishga, balki shu tilda gapiradigan odamlarning tabiati va tafakkur tarzini ham yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi. Maqol va matallar xalq hikmatining durdonasidir[5, 319]. Frazologiyaga oid ozmi-ko'pmi bir qancha keng tushunchalar mavjud bo'lsa ham, maqollar frazeologik birliklar orasida alohida sinfni tashkil etishi haqida olimlarning umumiy fikri mavjud[7, 3]. Maqollarning jozibadorligi shundaki, ular murakkab-falsafiy g'oyalarni oddiy, esda qolarli ifodalarga aylantira oladi. Maqollar jamiyatning umumiy bilimlari va e'tiqodlarini aks ettiribgina qolmay, balki madaniyatni shakllantiruvchi tarixiy va ijtimoiy dinamika haqida ham tushuncha beradi. Maqollar orqali biz xalqning til ijodkorligini o'rganishimiz, dunyoqarashini anglashimiz, muloqot uslublarining nozik tomonlarini qadrlashimiz mumkin. Shuningdek, maqollar orqali turli xalqlarning salomatlik va kasallik haqidagi tasavvurlari, tibbiy ko'rsatmalar va umumiy hayotiy maslahatlar yetkaziladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarni tahlil qilish orqali bu tillarda salomatlik va kasallik mavzusining qanday talqin qilinishini, qanday semantik xususiyatlarga ega ekanligini o'rganish mumkin. Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallik mavzusidagi maqollar turli madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan. Ingliz tilidagi maqollar, asosan, G'arb madaniyatining qadriyatlari va tibbiy an'analari bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilidagi maqollar Sharq madaniyati va an'alarining aksidir.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi salomatlik va kasallik mavzusidagi maqollarning semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularning tuzilishi, ma'nosi va ishlatilish xususiyatlarini tahlil qilib, ularning madaniy kontekstdagi o'rnini aniqlaymiz.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

**Tadqiqot metodologiyasi** Maqolada qiyosiy tahlil, lingvistik tahlil, madaniy kontekstualashtirish kabi metodologiyalardan foydalanilgan.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

Maqollar inson tajribasi va kuzatuvlarini umumlashtirib, shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy masalalar bo'yicha tayyor sharhlarni taqdim etgan donolikni ifodalaydi[2, 18]. Ulardagi maslahat berish, axloqiy ta'limotlarni yetkazish yoki oddiygina inson tajribasi haqidagi haqiqatlarni qamrab olish kabi xususiyatlari deyarli har bir madaniyat va tilda uchraydigan universal hodisadir. N.M. Bradburiga ko'ra maqollardan foydalanish ham aqliy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib nutqda yaxlit va integratsiyalashgan yondashuvni keltirib chiqaradi[1, 262]. Maqollardan foydalanish nutqning jozibadorligini oshiribgina qolmay, ularning ma'lum bir ijtimoiy jabhalarga tegishli qismi ta'sirchanlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Xususan, ko'plab xalqlar madaniyatida salomatlik va kasallik kabi universal mavzularga murojaat qilingan maqollarni kuzatishimiz mumkin. Bunday turg'un birikmalar sog'liqni saqlash, kasallik va inson tanasiga nisbatan madaniy munosabatni aks ettiradi Ingliz va o'zbek tillaridagi salomatlik va kasallikka oid maqollar nafaqat umumiy munosabatlarni, balki turli madaniy nuqtai nazarni ham ochib beradi. Bunday maqollar ikki madaniyatda ham sog'lik muhimligini ta'kidlab, uni to'laqonli hayotning tamal toshi sifatida e'tirof etadi. Jumladan, ingliz tilidagi "*Health is wealth*" maqolida salomatlik moddiy boylikdan qimmatroq degan fikr lo'nda ifodalangan. Xuddi shunday, o'zbek xalqining "*Sog'liging – boyliging*" yoki "*Salomatlik – tuman boylik*" maqollarida ham ana shu fikrga o'xshab, salomatlik farovon hayotning asosi ekanligini ta'kidlanadi

Bugungi kunda bizda mavjud bo'lgan salomatlikka oid maqollarini ajdodlarimiz shaxsiy tajribalari va kuzatishlari asosida yaratganlar. Biroq, ushbu salomatlik maqollarining aksariyati ilmiy jihatdan tasdiqlanmagan. Maqollar odatda umumiy haqiqatning oddiy tasviri bo'lib, hech qachon shunchaki quruq ilmiy bayonot bo'lishi kerak emas. Maqol insonlar salomatligini mustahkamlashga xizmat qilyaptimi, demak, bunday maqollar foydali va amal qilishga arziydi[8]. Ikki tilda ham bunday maqollar ko'plab mavjud bo'lib, ularning ba'zilari sog'liqni mustahkamlashda kasallikning oldini olish va ogohlik muhimligiga urg'u beriladi. Ingliz maqoli "*An apple a day keeps the doctor away*" (*Kuniga bitta olma yeyish shifokordan uzoq saqlaydi*) muntazam amalga oshirilgan kichik harakatlar kasallikning oldini olishga yordam berishini ifodalaydi. O'zbek tilida ham taomlanishning salomatlikka ta'sirini aks ettiruvchi maqol mavjud: "*Sarimsoq, sarimsoq yeganning tani sog'*". Bu

## TILSHUNOSLIK

maqol ham oddiy odatning sog'liqni saqlashdagi o'rnining ahamiyati ta'kidlanadi. Ikkala tildagi maqollar ham xalqlarning tajribalari asosida kelib chiqqan kundalik odatlarga asoslangan bo'lib, izchil profilaktik choralarini targ'ib qiladi va ikki xalq madaniyat o'xshashligini aks ettiradi.

Maqollarda shuningdek kasallikka nisbatan bo'lgan madaniy munosabat ham ifodalanadi. Ingliz tilidagi *"Laughter is the best medicine"* (*"Kulgu – eng yaxshi dori"*) maqoli kasallikni yengishda ijobiy dunyoqarash va hazilning terapevtik ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu aqliy va hissiy farovonlik jismoniy salomatlikning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. "Quyosh, havo – tanga davo." degan o'zbek maqolida davolashda tabiatning o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Bu ibora shuni anglatadiki, toza havoda, quyosh nuri ostida bo'lish sog'likni tiklanishning kalitidir. Ikkala maqol ham kasallik bilan kurashishda oddiy amaliyotlarning rolini ta'kidlaydi, lekin turli jihatlarga e'tibor qaratadi: ingliz tilida hazil va o'zbek tilida esa tabiat va atrof-muhit.

Turg'un birikmalarning bu turlari ko'pincha xalq davolanish usullarini va salomatlik haqidagi an'anaviy donolikni qamrab oladi. *"Feed a cold, starve a fever (Sovuq yeganni taomlantir, issig'i chiqqanni och qoldir"* maqoli tarixiy ingliz tibbiyot amaliyoti va e'tiqodlarini aks ettiruvchi keng tarqalgan kasalliklarni davolashda an'anaviy yondashuvni taklif etadi. O'zbek maqollarida ham an'anaviy salomatlik amaliyotlari ham o'z ifodasini topgan. "Asal ming dardga davo" maqoli o'zbek xalqining an'anaviy tabobati haqida ma'lumot berib, xalqning turmush tarzi va urf-odatlarini ham ma'lum darajada aks ettiradi. Shunga o'xshash ma'noni ilgari suruvchi *"Bir anor ming bemorga davo"* maqoli ham o'zbek xalqi madaniyatidagi o'ziga xoslikni ifodalaydi.

Salomatlikka oid maqollar ba'zan axloqiy jihatlarga ega bo'lib, kengroq ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi. Ingliz tilidagi *"Early to bed and early to rise, makes a man healthy, wealthy, and wise"* (*"Erta uxlab, erta turish odamni sog'lom, boy va dono qiladi"*) maqoli intizomli turmush tarzini targ'ib qiladi, salomatlikni mehnatsevarlik, ehtiyotkorlik kabi axloqiy fazilatlar bilan bog'laydi. O'zbek tilidagi *"So'g' tanda – sog'lom aql"* maqoli odamlarni ruhiy va jismoniy salomatlikni rivojlantirishga undaydi, axloqiy hayotda chuqur ildiz otgan salomatlik haqidagi yaxlit nuqtai nazarni aks ettiradi.

Ikkala til maqollari ham salomatlik haqidagi zamonaviy tushunchalarni aks ettirishga moslashgan. Masalan, ingliz maqolida *"You are what you eat"* (*"Siz yegan narsangizning aksisiz"*) deyilganda, ovqatlanishning muhimligini ta'kidlab, dietaning salomatlikka ta'siri haqida zamonaviy tushuncha aks ettirilgan. O'zbek maqollari ham shunday rivojlangan. *"Tibbiyotga ishon, lekin o'zingni kuzat"* o'z sog'lig'i uchun shaxsiy mas'uliyatni rag'batlantirish bilan birga professional tibbiy maslahatni qadrlaydigan zamonaviy yondashuvni aks ettiradi. An'anaviy donolik va zamonaviy tibbiyot bilimlarining bunday uyg'unligi maqollarning yangi kontekstlarga moslashishda dinamik tabiatini ko'rsatadi. Shu kabi maqollar ketma-ket kelganda, biri ikkinchisini inkor etgandek, bir-biriga ziddek tuyulishi mumkin. Aslida esa qo'llanish vaziyatiga qarab turli-tuman ma'no-mazmunni ifodalaganligini unutmaslik kerak [3, 6].

Ingliz va o'zbek maqollarining salomatlik va kasallik bilan bog'liq semantik o'ziga xos xususiyatlari insoniyatning umumiy masalalarini va o'ziga xos madaniy yondashuvini ochib beradi. Maqollarning ikkala turkumi salomatlikning qadr-qimmatini, oldini olish muhimligi va tafakkurning farovonlikka ta'sirini ta'kidlasa-da, ular buni o'zlarining nodir madaniy kontekstlari orqali amalga oshiradilar. Ushbu maqollarni tushunish turli madaniyatlarining salomatlikka qanday yondashishi haqidagi tushunchamizni boyitadi va sog'lom bo'lishga intilishning umuminsoniy tajribasi haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

### XULOSA

Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik tahlili ikki tilning ham boy imkoniyatlarini ko'rsatadi. Har ikkala tilda ham sog'lik va kasallik bilan bog'liq maqollar inson hayotining muhim jihatlari alohida e'tibor qaratadi. Ingliz tilidagi maqollar ko'pincha individual salomatlik, tibbiy ko'rsatmalar va sog'lom turmush tarziga urg'u bersa, o'zbek tilidagi maqollar esa ko'proq ijtimoiy jihatlari, oila va jamiyatlardagi munosabatlar orqali sog'likning ahamiyatini yoritadi. Shu bilan birga, ikkala tilga xos bo'lgan umumiy g'oyalar ham mavjud bo'lib, ular sog'likning qadr-qimmatini, uning hayot uchun zarurligini va kasallikning oldini olish muhimligini ta'kidlaydi. Maqollar orqali xalqning madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashi ifodalanadi, bu esa tildagi maqollarni tahlil qilish orqali ushbu xalqlar haqida kengroq ma'lumot olish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot har ikkala tilda ham sog'lik va kasallik mavzusida boy xalq og'zaki ijodi mavjudligini hamda ularning inson hayotida katta rol o'ynashini ko'rsatdi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bradbury Nancy Mason. Transforming Experience into Tradition: Two Theories of Proverb Use and Chaucer's Practice / Oral Tradition. 2002. – № 17/2. – P. 261-289.
2. Mieder Wolfgang. Proverbs: A Handbook. – London; Greenwood Press, 2004. – P. 18.
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Sharq, – Toshkent: – 2005. – 3-6 b.
4. Rahmatullayev SH., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. 2022.
5. Syzdykova K. Contrastive Studies on Proverbs / Procedia — Social and Behavioral Sciences. 2014, № 136, – P. 318-321.
6. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: – Москва: Высшая школа, 1996. – 115 с.
7. Villers B. What makes a good proverb? On the birth and propagation of proverbs / Journal in English Lexicology. Phraseology and Paremiology in English. Lexis. 19/2022. – P. 3.
8. [Health proverbs | Journal of Epidemiology & Community Health \(bmj.com\)](#)